

## YAXSHILIK VA YOMONLIK AKSIOLOGIK KONSEPTI TADQIQI

**Burqutbayeva M.,**

ToshDO‘TAU, lingvistika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aksiologik qarashlar va ularning yaxshilik va yomonlik konsepti doirasidagi tahlili, yaxshilik va yomonlik aksiologik tahlilining Sharq va G‘arb olamida namoyon bo‘lishi va ularning bir-biridan farqi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu konsept tahlili bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ulardan farqli o‘laroq bu maqolada ushbu sohaga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilgan va misollar asosida izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** yaxshilik, yomonlik, aksiologiya, konsepsiya, Sharq dunyosi, G‘arb olamida aksiologik qarashlar, dinlararo.

### RESEARCH OF THE AXIOLOGICAL CONCEPT OF GOOD AND EVIL

*Burqutbayeva M.,*

*Tashkent State Pedagogical University, 1st stage master’s degree in linguistics*

**Annotation.** This article provides information on axiological views and their analysis within the concept of good and evil, the manifestation of the axiological analysis of good and evil in the Eastern and Western worlds and their differences. In addition, a number of scientific studies have been conducted on the analysis of this concept, in contrast to which this article approaches the field from a linguistic point of view and explains it on the basis of examples.

**Keywords:** good, evil, axiology, concept, Eastern world, axiological views in the Western world, interreligious.

### ИССЛЕДОВАНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ ДОБРА И ЗЛА

*Буркутбаева М.,*

*Ташкентский Государственный Педагогический Университет, 1 ступень  
магистра лингвистики*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об аксиологических воззрениях и их анализе в рамках концепции добра и зла, проявлении аксиологического анализа добра и зла в восточном и западном мире и их различиях. Кроме того, был проведен ряд научных исследований по анализу данного понятия, в отличие от которых в данной статье данная область подходит с лингвистической точки зрения и объясняется на основе примеров.

**Ключевые слова:** добро, зло, аксиология, концепт, восточный мир, аксиологические воззрения в западном мире, межрелигиозный.

Barchamizga ma'lumki, nutqimizda turfa xil yaxshilik va yomonlikka oid aksiologik konseptlar mavjud bo'lib, u har bir xalqning milliy qadiyatlarini, urf-odatlarini asosida yuzaga keladi. Sharq va G'arb olamida ham, dinlararo munosabatlarda ham ushbu tushunchalarning tadqiqi turlicilikni kasb etadi[5]. Biz yaxshilik va yomonlik aksiologik konseptiga turli xalqlar qadriyatlariga asoslangan holda tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashib, ushbu maqolamizda misollar asosida tahlil qilmoqchimiz. Bu o'rinda, eng avvalo, aksiologiya va konsept tushunchalarining mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aksiologiya yunon tilidan olingan bo'lib, “aksios” – munosib, qimmatli, loyiq; “logos” – o'rgatish, nazariya degan ma'noni anglatadi. Qadriyatlar to'g'risidagi fan hisoblanish aksiologiyaga ilm-fan jihatidan yondashuv miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi[9]. Aristotel, Spinoza, Gobbs, Lokk, Mur, Kant va shu kabi ilmiy soha vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida aksiologik talqinning o'ziga xos xususiyatlari o'zining yorqin ifodasini topgan[13]. Konseptga to'xtaladigan bo'lsak, konsept tafakkurga xos tushuncha hisoblanib, inson aqliy faoliyatining tildadi korrelyativlari bilan aloqasi asosida yuzaga keladigan tushuncha hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda aksiologik tushunchalar (masalan, baxt, erkinlik, sevgi va boshqalar) ko'plab samarali tadqiqotlar mavzusiga aylanmoqda. Aksiologik

tushunchalarni o‘rganish kishilar tafakkuridagi umuminsoniylik (universal) va milliylik aniqlash imkonini beradi. Yaxshilik va yomonlik aksiologik konsepti esa, yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir millatning milliy mentaliteti asosida yuzaga keluvchi lingvokulturologik tushunchalar hisoblanadi. Ushbu aksiologik konseptlarning ma’noviy jihatlari nutqiy vaziyat hamda kontekstga bevosita aloqador hisoblanadi. Ba’zi jarayonda holat bilan bog‘liqlik ustuvor hisoblansa, ba’zan psixologik jihat e’tiborga olinishini e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Shu jihatdan yaxshilik va yomonlik aksiologik konseptini quyidagi guruhlar asnosida tasniflash maqsadga muvofiqdir, ya’ni nutqiy vaziyat va matnda yaxshilik va yomonlik aksiologik konsepti quyidagi holatlarga ko‘ra sinflashtirilishi mumkin[3]:

- a) Psixologik nuqtayi nazardan;
- b) Aqliy nuqtayi nazardan;
- c) Holat jihatidan;
- d) Estetik jihatdan;
- e) Etik jihatidan;
- f) Hissiy nuqtayi nazaridan va hokazo.

Yuqorida qayd etilganlar orasidan holat ma’nosini jamlovchi yaxshilik va yomonlik aksiologik konseptini tahlil qilsak. Adabiyotimizning taniqli darg‘alaridan biri O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida keltirilgan “Yo‘l bo‘yidagi daraxt” matniga e’tibor bering:

Katta yo‘l bo‘yida daraxt o‘sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo‘lovchi keldi. Kun issiq, yo‘lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o‘tirib dam oldi...

Yo‘lovchi ochiqqan edi. Qarasa, daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtga chiqishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to‘kildi. Yo‘lovchi to‘ygunicha edi ...

Manzil olis edi. Yo‘lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi... Keyin... zahar tang qilib qoldi. Yo‘lovchi daraxt panasiga o‘tdi...So‘ng... yo‘liga ketdi...

Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshladi... Bu daraxtning nomi YAXSHILIK edi...

Ushbu matnda o‘z aksini topgan konsept bu yaxshilik konsepti hisoblanadi. Yaxshilik konseptining ifodalovchi ramzi “daraxt” timsoli hisoblanib, muallif badiiy

tasvir vositalari orqali aks etgan ushbu matnda yaxshilik konseptining mohiyatini ochib berishga harakat qilgan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yaxshilik va yomonlik konseptining aks etishi turli birikmalar, iboralar, frazeologik birliklar, maqol, matallar orqali aks etishi mumkin. Yaxshilik va yomonlik aksiologik konseptlari sodda birliklar hisoblanib, ular yuqorida qayd etilgan lingvistik birliklarning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Xususan, xalq og'zaki ijodining maxsus turiga kiruvchi maqollardan birida “Yaxshilik yerda qolmas”, “Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilur, Baliq bilmasa, Xoliq bilur” kabi namunalar mavjud . Ular lingvokulturologik jihatdan yaxshilikning javobsiz qolmasligi, unga, albatta, qachondir javob qaytishi haqidadir. Bu esa Islom dini ta'limotida ham o'zining yaqqol aksini topgan, “Zilzila” surasining 7-oyatida shunday deyiladi: “Kimki zarracha yaxshilik qilsa, uni ko'radi”. Yoki “Niso” surasining 40-oyatida: “Agar zarracha yaxshilik bo'lsa, uni bir necha barobar qilur va o'z huzuridan ulug' ajr ato etur”. Birinchi oyati karimada yaxshilik so'zi yaxshilik qilmoq fe'lining tarkibiy qismi bo'lib kelgan bo'lsa, keltirilgan ikkinchi oyatda esa sodda birlik tarzida qo'llanilgan. “Anbiyo” surasining 35-oyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, oyati karimadagi : “Har jon o'limni totib ko'rguvchidir. Biz sizlarni (sabr-toqatlaringizni sinash uchun) yomonlik bilan ham, (shukr qilishingizni bilish uchun) yaxshilik bilan ham «aldab» imtihon qilurmiz. (Keyin) faqat Bizgagina qaytarilursizlar” jumllarida qo'llanilgan yomonlik va yaxshilik so'zlari o'zaro uyushiq bo'lak hisoblanib kelgan. Demak, keltirilgan izohlarimizda yaxshilik va yomonlik aksiologik konseptlarining sodda va birikma tarzida qo'llanilishini ko'rib chiqdik.

Boburning “Boburnoma” asarida ham yaxshilik va yomonlik aksiologik konseptiga oid frazeologik birliklar qayd etilgan bo'lib, ular tarkibida yaxshilik so'zining asos qismi “yaxshi” so'zi ishtirok etgan. Xususan, asarda qo'llanilgan “yaxshi bosmoq” iborasi ko'rinishidan boshqa ma'no ifodalagandek ko'rinsa-da , biroq uning asl ma'nosi “tor-mor etmoq” dir. Bundan tashqari, “Yaxshiroq ko'rmoq” iboraviy birligi ham ishtirok etgan va uning ma'nosi “hurmatlamoq”, “e'zozlamoq”

demakdir. Hamda “yomonlik” aksiologik konseptining asos qismi – yomon – ishtirok etgan iboralarni ham ushbu asarda uchratishimiz mumkin, jumladan, “yomon ot bila bormoq” iborasini olaylik, ushbu ibora “yomon nom bilan o‘lmoq” ma’nosini ifodalaydi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yaxshilik va yomonlik aksiologik birliklari har bir madaniyatning o‘ziga xos tushunchalari asosida kelib chiqiladi. Unga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv esa ularni turli jihatdan tahlil qilish asnosida amalga oshiriladi. Yaxshilik va yomonlik aksiologik konsepti tilshunoslikning yangi sohasi hisoblanmish lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi hisoblanib, uning keng tadqiq qilinishi tilshunosligimiz uchun ulkan yutuq hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. – М.,1960.
2. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
3. V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to‘g‘risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.– Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
5. Абрамов В. П. Теория ассоциативного поля. Краснодар: Техн. Ун Кубан. гос. тех-нол. ун-та, 2003. 337 с.
6. Алефиренко Н Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловые пространства языка. М.: Флинта, 2010. 288 с.
7. Апресян Ю. Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Вопросы языкознания. 1995. Вып. 1. С. 46–51.
8. Аристотель. Риторика / Пер. В. Г. Апеллерота / под ред. Ф. А. Петровского. М.: Лабиринт, 2000. 224 с.

9. Аристотель. Сочинение в 4-х томах. Т. 1. М.: Мысль, 1984. 330 с.
10. Аристотель. Сочинение в 4-х томах. Т. 4. М., 1983. 240 с.
11. Арнольд И. В. Интерпретация художественного текста: типы выдвижения и проблема экспрессивности // Экспрессивные средства английского языка. Л., 1975. С. 11-20.
12. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. М.: Наука, 1988. 34 с.
13. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
14. [www.hozir.org](http://www.hozir.org)
15. [www.google.com](http://www.google.com)

